

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Radon monitoring nazorati va radon o‘lchash vositalarini kalibrlash uchun havodagi radon faolligi birligi milliy etalonini yaratish  Camera radon measuring device  CAMERA-01 radon measuring device  Radon meter AlphaGUARD  Flow through source RF - ^{222}Rn	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - respublikamizda radon monitoringini takomillashtirish asosida radon darajasini baholashda o‘lchash natijalarining ishonchliligini ta’minlash uchun barqaror faoliyat yurituvchi tizim, respublikada radon monitoring nazorati va radon o‘lchash vositalarini kalibrlash uchun zarur infratuzilma yaratiladi; - xorijiy davlat ilmiy-tadqiqot markazlarida mutaxassislarni malakasi oshiriladi, o‘lchash vositalarini metrologiya tekshiruvidan o‘tkazish uchun xalqaro tavsiyalar bilan uyg‘unlashgan; - 2 ta milliy standartlar ishlab chiqiladi; - laboratoriyaning akkreditatsiya doirasi kengaytiriladi tog‘-kon va metallurgiya, geologiya, sog‘liqni saqlash va ekologiya sohalarida foydalaniladigan radon o‘lchash vositalarining metrologik kuzatuvchanligi ta’minlanadi; - radon faolligi birligi milliy etalonini yaratiladi; - ISO, IEC va EURAMET tavsiyalariga asosan zarur infratuzilma yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ishlab chiqilgan milliy standartlar va metodikalar asosida sanoat tarmoqlarida texnik qurilmalar ustidan nazoratni amalga oshiradigan putur yetkazmasdan tekshirish o‘lchash vositalarini ishlash samaradorligi respublikada akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyalarda va xorijiy milliy metrologiya institutlarida sinovlardan o‘tkaziladi. Standartlar ekspertizadan o‘tgandan keyin o‘rnatilgan tartibda Respublikada davlat standarti sifatida qabul qilinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.